

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Ақром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,
Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна –
психология фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий
университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари”** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Norbekov Ahmadjon Norbekovich

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY

HOLATI 11-18

Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li

BAQTRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI..... 19-23

Нуритдинова Нодира Сирожовна

XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН

ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА)..... 24-28

Чориев Шоҳрух Холтура ўғли

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ

СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА 29-38

Жумаева Шоира Бердияровна

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА

МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ 39-43

Jo'rayev Muxriddin Xasanovich

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI

GEOGRAFIYASI..... 44-51

Муқимова Рисолат Рустамжон қизи

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР 52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ

ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ 57-69

Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna

MINAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI 70-75

Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI 76-86

Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ

ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ 87-92

Исламтудинова Дина Файзрахмановна

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН 93-102

Qobiljon Isaev

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY

BAHOLASH 103-110

09.00.00 – FALSAFA FANLARI*Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKISTONDA "AHOLI HAYOT SIFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) 111-116

Расулов Зоҳиддин Усарович

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ХАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙЎНЛИГИ 117-122

Тавмурадов Жамшид Элмурадович

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС 123-128

Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li

YUSUF QORABOG'IIY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI 129-132

Muxtorova To'tixon Solijonovna

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR 133-137

Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI 138-142

Ahmedova Dilrabo

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIIY, MA'NAVIIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIIY POTENSIALI 143-150

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI 151-159

Seytnazarova Injayim

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI 160-168

Tukhtakhodjaeva Zulfiya

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY 169-174

Abdusalamov Doniyor Togayali ogli

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES 175-179

Axmedov Anvar Botirovich

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR 180-184

Aminov Farrukh Komiljon Ugli

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES 185-193

Sharipov Bobur Salimovich

RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA 194-201

Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 202-205

Samatov Farxod Muminovich

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) 206-210

Kendjayeva Zemfira

METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI..... 211-216

Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», «IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI 217-221

Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKAR 222-226

Шарапова Лола Станиславовна

ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА..... 227-232

Ҳакимова Мастура Файзиллаевна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) 233-239

Mo'soyeva Hayitgul O'roqovna

"HEART" – "YURAK" SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI 240-245

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI 246-250

Багаутдинова Ильмира Салаватовна

ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ 251-255

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich

EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE 256-268

Алиев Асилбек Кадирович

ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА 269-275

Hong Weixing

INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA 276-284

Султанова Сабохат Алишеровна

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 285-290

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi

O'ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI 291-298

Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи

ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ 299-304

Khalikov Khayot

THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH 305-311

Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА .. 312-317

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDUCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI
O'YINLARNING O'RNI 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI
HAQIDA 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODLARI 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI
DASTURLARDAN FOYDALANISH 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI 393-399

Nishonov Nodir Alimjanovich

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI

RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI 400-404

Xidirova Durdona Muxtorovna

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY

MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI 405-408

Received: 10 December 2024
Accepted: 15 December 2024
Published: 25 December 2024

Article / Original Paper

THE OBJECTIVE NEED TO IMPROVE AGROBIOCHEMICAL SERVICES IN GROWING AGRICULTURAL PRODUCTS

Matkarimov Inomjon Bakhtiyorovich

PhD, associate professor. Associate Professor of the "Economics"
Department of Mamun University

Abstract. In this article, the objective necessity and essence of improving agrobiochemical services in the production of agricultural products in the conditions of economic and ecological sustainable growth is widely explained.

Key words: food safety, agrochemical services, FAO, ecosystem services, competitiveness, pesticide, food chain, biocontrol.

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI

Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich

PhD, dotsent, Ma'mun universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy va ekologik barqaror o'sish sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda agrobiokimyo xizmatlarini takomillashtirishning obyektiv zarurati va mohiyati keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, agrokimyo xizmatlari, FAO, ekotizim xizmatlari, raqobatbardoshlik, petitsid, oziq-ovqat zanjiri, bionazorat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N10>

Kirish. Qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat, sanoatni xom-ashyo bilan ta'minlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi, ammo qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish ob-havo va ekologiya bilan bog'liqligi va ushbu jarayonlarga inson ta'sirining oshib borishi sohada muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ya'ni, bir tomondan ekologik muammolarning keskinlashuvi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda kimyoviy xizmatlardan foydalanishni talab qilayotgan bo'lsa, boshqa tomondan aholi sonini oshib borishi va ular ehtiyojlarini qondirish agrokimyo xizmatlaridan foydalanishni cheklash bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. Chunki, mavjud yer maydonidan foydalangan holda talabni qondirish imkoniyati cheklanganligi, turli kimyoviy hamda biologik xizmatlardan foydalangan holda samaradorlikni oshirishni talab qiladi.


Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot mavzusi doirasida mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar o'rganildi.

Qishloq xo'jaligini kimyolashtirish — qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonlarida kimyoviy moddalarni qo'llash; kimyo, biokimyo, mikrobiologiya va agrokimyo fani yutuqlaridan foydalangan holda kam mehnat va mablag' sarflab olinadigan mahsulot hajmini ko'paytirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks tadbirlardan biri. Qishloq xo'jaligini "kimyolashtirish" atamasi 20-asrning 30-yillarda turli zonalarda o'g'itlar tizimini qo'llash tufayli rus olimi D.N.Pryanishnikov (1865—1948) tomonidan taklif qilingan[1. 7 b].

Xorijiy davlatlarda xizmat ko'rsatish tizimi rolini ilmiy tushunishning ustuvorligi, innovatsion rivojlanish sharoitida agrobiokimyo xizmatlarni tashkil qilish, agrobiokimyoviy vositalardan foydalanishni atrof-muhit va inson salomatligiga ta'sirini baholash va ularning qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga ta'siri masalalari, jumladan, G.F.Kotler, E.Laur, K.Xoynatska, A.Said, P.Singx, M.Gorbanpur, T.V.Sate, L.Marsiya, Tammires de Assis Alves, Madjeti Narasimha Vara Prasad, G.Vosink, S.Sivaramanan, M.Koll, Treysi va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Birlashgan millatlar tashkiloti oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) ma'lumotlariga ko'ra butun dunyoda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar taxminan besh millard gektarni tashkil qiladi, boshqacha aytganda jami yer maydonining 38 foizini tashkil qiladi. Ushbu maydonning taxminan uchdan bir qismi ekin maydoni sifatida foydalanilsa, qolgan uchdan ikki qismi o'tloq va yaylovlardan iborat bo'lib chorva mollarini boqish uchun foydalaniladi[1; 4 b.].

Muhokama. Mavjud ekin maydonidan foydalangan holda aholi talabini qondirish va bunda ekologik o'zgarishlarni ham hisobga olish qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ekotizim xizmatlarini ta'minlashga asoslanadi. Ekotizim xizmatlari tushunchasini ta'riflash va unga tarkibiy qismlarini aniqlash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan ekotizim xizmatlari tabiiy ekotizimlar va ularni tashkil etuvchi turlar orqali inson hayotini qo'llab-quvvatlaydigan va amalga oshiradigan sharoitlar va jarayonlarni ta'minlovchi xizmatlar sifatida ta'riflanadi[2; 154 b.]. Ekotizim xizmatlarini tasniflash masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi va ularni to'rtta asosiy toifaga bo'lish taklif qilinadi. Bular: ta'minlash, qo'llab-quvvatlash, madaniy va tartibga soluvchi xizmatlardir (1-rasm).



1-rasm – Ming yillik ekotizimini baholashda ekotizim xizmatlarining tasnifi [3; 258 b]

Qishloq xo'jaligi ekotizimlari birinchi navbatda oziq-ovqat, tola va yoqilg'i bilan ta'minlashda ekotizim xizmatlarini optimallashtirish uchun boshqariladi. Bu jarayonda qishloq xo'jaligi ekotizimlarining asosiy biofizik imkoniyatlarini aniqlaydigan tuproq unumdorligi va

changlatish [4; 234-236 b.] kabi turli xil qo'llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi xizmatlarga tayanadi[5; 1232 b]. Qishloq xo'jaligi, shuningdek, hosildorlikni pasaytiradigan yoki ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradigan bir qator ekotizim xizmatlarini ham qamrab oladi. Ushbu xizmatlarnig qishloq xo'jaligi ekotizimiga ta'sirini quyida ko'rinishda keltirib o'tish mumkin (2-rasmga qarang).

Darhaqiqat qishloq xo'jaligining "boshqariladigan ekotizim" sifatidagi keng ko'lamli tabiiy ekotizmlar xizmatlari hamda ekotizimga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xizmatlarni qishloq xo'jaligiga ta'siri hamda ularni qishloq xo'jaligidan keladigan nisbiy oqimini optimallashtirishni talab qiladi[7; 1-15 b.]. Turli ekotizim xizmatlari hamda ekotizimga salbiy ta'sir qiluvchi xizmatlar qishloq xo'jaligida o'ziga xos xarajatlar va foydani vujudga kelishiga sababchi bo'ladi va bular turli miqyosdagi funksional guruhlar hamda birliklar, ittifoqlar tomonidan ta'minlangani holda inson faoliyatiga o'ziga xos ijobiy va salbiy ta'sirlarni ko'rsatadi. Shu sababli tadqiqot ishida qishloq xo'jaligi uchun asosiy ekotizim xizmatlari hamda ekotizimga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xizmatlari umumlashtirilgan holda tavsiflab o'tilgan.

Ekotizimga salbiy xizmatlarning keyingi yillarda oshib borishi qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalardan foydalanishni kamaytirish, pestitsidlarsiz qishloq xo'jaligiga o'tishni talab qilmoqda. Biroq, aholi sonining bugungi darajasi va o'sish sur'ati, ularning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi bunga imkon bermaydi. Shu sababli, butun dunyoda pestitsidlardan foydalanish darajasini kamaytirgan holda qishloq xo'jaligining ekotizimga salbiy ta'sirlarini pasaytirish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ko'plab amaliy tadbirlarni Yevropa Ittifoqi davlatlarida faoliyati kuzatish mumkin.

Yevropa Ittifoqining qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iste'molgacha (Farm to Fork) va Bioxilma-xillik (Biodiversity) strategiyalari doirasida Yevropa Komissiyasi o'simliklarni himoya qilish vositalaridan barqaror foydalanish bo'yicha yangi Nizom qoidalarini taklif qiladi. Unga ko'ra Yevropa Ittifoqida 2030 yilga kelib kimyoviy pestitsidlardan foydalanish va ularning salbiy ta'sirlarini 50 foizga qisqatirishi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan[8; 243 b.].

Mazkur takliflar 2022-yilning 22-iyun sanasida qabul qilingan bo'lib, Yevropa Ittifoqining oziq-ovqat tizimini atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu takliflar iqlim o'zgarishlari hamda biologik xilma-xillikning yo'qolishi tufayli vujudga kelayotgan iqtisodiy yo'qotishlarni yumshatishga xizmat qiladi. Asosiy chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kimyoviy pestitsidlardan foydalanish va ularning xavfini, jumladan xavf darajasi yuqori bo'lgan pestitsidlardan foydalanishni 2030-yilga kelib 50 foizga qisqartirish maqsadi qonun bilan belgilab qo'yildi. Ya'ni, belgilangan maqsadlarga erishish uchun har bir a'zo davlat o'zining milliy darajadagi pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish maqsadlarini belgilab olishi talab qilinadi.


Ekologik toza zararkunandalarga qarshi kurash: yangi chora – tadbirlar fermerlar va pestitsidlardan foydalanuvchi boshqa subyektlarni integrallashgan zararkunandalarga qarshi kurashishini qo'llashini ta'minlaydi. Ushbu zararkunan-dalarga qarshi kurashishning ekologik toza tizimi bo'lib, u zararkunandalar paydo bo'lishini oldini olishga qaratilgan va zararkunandalarga qarshi kurashishda muqobil usullarga ustuvor ahamiyat berilishini talab qiladi. Unga ko'ra kimyoviy pestitsidlardan foydalanish oxirgi chora sifatida qaraladi.

Ta'sir darajasi, sezuvchanligi yuqori bo'lgan hududlarda pestitsidlardan foydalanishni ta'qiqlash: Shahar yashil hududlari, jumladan jamoat parklari va bog'lari, bolalar o'yin maydonchalari, dam olish yoki sport maydonchalari, Tabiat 2000 (Natura 2000) muvofiq jamoat yo'llari, shuningdek qo'riqlanadigan hududlar, bundan tashqari changlatuvchilar xavf ostida qolishi mumkin bo'lgan har qanday ekologik sezgir hududda pestitsidlardan foydalanish ta'qiqlanadi.


Bunda asosiy chora-tadbirlar a'zo davlatlarning nokimyoviy zararkunandalarga qarshi kurashish usullaridan foydalanish darajasini oshirish bo'yicha ijobiy maqsadlarni belgilashini talab qilish, fermerlar va pestitsidlarning boshqa foydalanuvchilarini zararkunandalarga qarshi kimyoviy bo'lmagan nazorat usullarini ko'proq o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun muqobil usullar bo'yicha mustaqil maslahat olishlarini ta'minlash hisoblanadi.

Keltirib o'tilgan Nizom bo'yicha taklif ko'rsatmani to'g'ridan – to'g'ri majburiy bo'lgan va barcha a'zo davlatlar uchun bir xilda qo'llanishi mumkin bo'lgan talabga aylantiradi.

Butun dunyoda zararli pestitsidlardan foydalanishni oldini olish va ular zararlarni kamaytirishni ta'minlanishi uchun bionazorat ("biocontrol") amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlar natijalaridan ko'rish mumkinki, bu tirik organizmlardan foydalaniladigan bionazoratning to'rtta strategiyasiga tayanadi (3-rasm).



2-rasm. Ekotizimga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xizmatlarni qishloq xo'jaligi sababi vujudga kelishi va qishloq xo'jaligiga ta'siri [6; 5995–6000 b.]



3-rasm. Bionazorat strategiyalari [9; 387–400 b.]

Keltirib o'tilgan bionazorat strategiyalarini qisqacha sharhlab o'tishni joiz topdik. Dastlab an'anaviy biologik nazorat strategiyasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bunda zararkunandalarga qarshi kurashish, uzoq muddat foydalanish uchun hamkorlikdagi bionazorat agenti tashkil qilinadi.

Ikkinchi strategiya ya'ni, inokulyasion biologik nazoratda turli tirik organizmlarni ko'payishi hamda zararkunandalar bilan uzoq muddat davomida kurashishi va yashab qolishini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi.

Uchinchi strategiyada zararkunandalarga qarshi kurashish uchun tirik organizmlardan foydalaniladi va bunda jarayon ushbu organizmlarning o'zlari tomonidan nazorat qilinadi.

Korservativ biologik nazoratda zararkunandalar ta'sirini kamaytirish maqsadida ularning tabiiy dushmanlarini himoya qilish uchun atrof-muhitga ta'sir ko'rsatiladi yoki mavjud amaliyotlardan foydalaniladi.

Bundan tashqari tirik organizmlar tomonidan ishlab chiqarilgan turli moddalarni to'g'ridan-to'g'ri foydalanmasdan, ularga kimyoviy birikmalar aralashgan holda stimulyatorlar tayyorlaniladi va foydalaniladi. Bular tabiiy ekstraktlar yoki kimyoviy yo'l bilan sintezlangan molekulalar bo'lib, deyarli tabiiy molekulalar bilan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

Shuningdek, bionazorat sektorining tijoriy modellarini o'zgartirish va diversifikatsiyalash bo'yicha ham amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda kimyoviy pestitsidlar sektoridagi kabi xususiy bionazorat tarmog'i ham shakllantirilgan. Mazkur tijoriy modellar qisqa muddatda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlash va foydalanishning oddiyligi bilan ajralib turadi hamda katta miqdordagi mahsulotni sotishga asoslanadi.

Bunday mantiqiy asosni bionazorat usullariga qo'llash orqali amaliyotchilar aslida bu usullardan bevosita foydalanishadi, chunki ular kimyoviy pestitsidlarning ushbu bionazorat bilan mos kelmaydigan jihatlari hamda umumiy baqarorlikni ta'minlashdagi kamchiliklari bilan to'g'ridan-to'g'ri qiyosiy tahlilini amalga oshirishadi. Foydalanuvchilar odatda mahsulotga emas balki xizmatlarga asoslangan tijoriy modellarga ko'proq e'tibor qaratishadi. Chunki, mavjud qiymat va ta'minot zanjiri bionazorat xizmatlari va mahsulotlari uchun emas balki kimyoviy pestitsidlarni ishlab chiqarish, tarqatish va ulardan foydalanish uchun tashkil qilingan[10; 250–258 b.].

Bionazorat va oziq-ovqat zanjirining mavjud turiga mos bo'lgan biznes modellarni shakllantirish turli yo'nalishlardagi tadqiqotlarning birgalikda amalga oshirilishini talab qiladi. Jumladan, boshqaruv, sotsiologiya, iqtisodiyot, agronomiya va biologiya yo'nalishlarining o'zaro bir-birini inkor qilmaydigan natijalariga ega bo'lgan tizimni shakllantirishni talab qiladi.

Bu barqaror, pestitsidlardan holi bo'lgan agrotizimlar va oziq-ovqat zanjirida bionazoratni tashkil qilish uchun juda ahamiyatli hisoblanadi.

Qator tadqiqotlarda bionazoratni tijoratlashtirish masalalari qarab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan yuqorida keltirilgan shaklda kompleks tarzda o'rganish holatlari kam uchraydi[11; 928–939 b.]. Yuqorida keltirib o'tilgan shakldagi tizimlar bionazoratning joriy sanoat tarmog'ini takomillashtirish va diversifikatsiyalash asosida yangi moslashtirilgan qiymat zanjiri va biznes modellarining tashkiliy innovatsiyalarini ishlab chiqilishiga imkon yaratadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabning oshib borishi eng barqaror dehqonchilik tizimi va oziq – ovqat zanjiri talablarini hisobga olgan holda bionazorat strategiyalarini ishlab chiqish va ustivor yo'nalishlarini aniqlashni talab qilmoqda. Bionazoratni tashkil qilish bo'yicha aniq maqsadlarni belgilashda o'ziga xos muammolar mavjud, chunki foydalanuvchilar keng o'lchamli kimyoviy tizimlar tomonidan boshqarilgan barcha zararkunandalar uchun bionazorat yechimlarini ishlab chiqilishini talab qilishmoqda.

Sohada xususiy va davlat investitsiyalari, bozor tahlillari ilmiy mezonlarga asoslanib olib borilmayapti balki, kimyoviy pestitsidlarni ishlab chiqishda an'anaviy ravishda qo'llanilib kelingan mezonlarga tayanilmoqda. Ya'ni, zararkunandalar tomonidan zararlangan maydonning hajmi, bozorning kattaligi va qator nazoratga ega bo'lmagan bozorlar mezon vazifasini bajarib kelmoqda. Keltirib o'tilgan tahlil natijalariga tayangan holda shuni ta'kidlash lozimki, har bir holatga mos bo'lgan bionazorat yechimlarini aniqlashda pestitsidlardan holi dehqonchilik tizimlarida zararkunandalar keltirib chiqaradigan muammolarni tahlil qilish tadqiqot asosi va innovatsion faoliyatga aylanishi kerak bo'ladi. Bunda tahlillar quyidagilarga asoslanishi lozim:

1. Yuqori ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ega bo'lgan turli dehqonchilik tizimlari hamda tegishli oziq-ovqat zanjiridagi mavjud zararkunandalarga qarshi kurashishi masalalari, shuningdek, istiqbolda samarali qo'llashni imkoniyalariga;

2. Tizimdagi zararkunandalar muammosining jiddiyligini ifodalovchi omillarni tadqiq qilishga;

3. Bionazorat strategiyalarining potensial turlarini maqsadli zararkunandalar muammosi, mavjud dehqonchilik tizimi hamda oziq-ovqat zanjiriga muvofiqligini ta'minlashga.

Bu yo'nalishlarda tadqiqot olib borish qishloq xo'jaligi tizimi, oziq-ovqat zanjiri hamda geografik hududning imkoniyatlarini hisobga olgan holda bionazoratni ishlab chiqish va tashkil qilish imkoniyatini yaratib beradi. Bundan tashqari potensial bionazorat strategiyalari va ularning kelgusidagi ahamiyati, texnik iqtisodiy ahamiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish uchun zamin yaratadi. Natijada, tadqiqot va innovatsion investitsiya strategiyalari, bozorni tadqiq qilish usullarini ham davlat, ham xususiy manfaatdor tomonlar uchun moslashtirish imkonini beradi.

Yuqorida pestitsidlardan holi qishloq xo'jaligini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan sohalardagi asosiy tadqiqot yo'nalishlariga e'tiborni qaratib o'tdik. Fikrimizcha, mazkur tadqiqot yo'nalishlari yangi tizimga o'tishni ta'minlaydigan izchil tizimli innovatsiyalarni ishlab chiqish uchun muvofiqlashtirilishi lozim bo'ladi. Ya'ni ushbu jarayonda bir-birini to'ldiradigan va samardorligini oshiradigan innovatsion loyihalarni ishlab chiqilishi ayniqsa muhim hisoblanadi.

Ya'ni agrotexnika usullar va bionazorat yechimlari tabiiy tartibga solishni kuchaytiradigan, o'simliklar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradigan hamda muvofiqlashtirilgan tarzda ishlab chiqilishi talab qilinadi. Bunda zaruriy uskunalar hamda ekin turlarini tanlash ham mazkur yo'nalishdagi tadqiqotning bir qismi bo'lishi lozim.

Shuningdek, petitsidlarni qo'llashni kamaytirish uchun ekinlarni diversifikatsiyalash masalasi bir vaqtning o'zida turli masshtablar va turli yo'nalishlarda, ya'ni naslchilikdan ijtimoiy fanlarga, qishloq xo'jaligi tizmi, oziq-ovqat zanjirining yuqori bosqichidan quyi bosqichigacha bo'lgan jarayonlardagi ko'plab to'siqlarni bartaraf etilishini qarab chiqish talab qilinadi. Shuningdek, tadqiqotlarda pestitsidlardan holi qishloq xo'jaligiga erishish uchun beshta strategiya qarab chiqiladi. Bunda ularning maqsadi, ko'lami va manfaatdor tomonlarning talabini hisobga olish uchun zarur bo'lgan yo'nalishlar belgilab beriladi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Pestitsidlardan holi qishloq xo'jaligining faoliyatlari mushtarakligi maqsadlari va ular bilan bog'liq tadqiqot mavzulari¹[12; 3-24 b.]

Taklif qilinayotgan tadqiqot yo'nalishlari zarur bo'lgan sinergetik samarani ta'minlaydigan maqsadlarga asoslanishi talab qilinadi. Keltirib o'tilgan tahlil natijalaridan

¹ Jacquet, Florence & Jeuffroy, Marie-Helene & Jouan, Julia & Le Cadre, Edith & Litrico, Isabelle & Malausa, Thibaut & Reboud, Xavier & Huyghe, Christian. (2022). Pesticide-free agriculture as a new paradigm for research. *Agronomy for Sustainable Development*. 42. 8. 10.1007/s13593-021-00742-8.

ma'lum bo'lishicha pestitsidlardan holi qishloq xo'jaligini tashkil qilish va biologik nazoratni amalga oshirish muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida gavdalanmoqda[13; 10 b.].

Ya'ni, o'simliklarni himoya qilishda biologik vositalardan foydalanishni tashkil qilish va kimyoviy vositalar qo'llashni kamaytirish talab qilinmoqda. Fikrimizcha agrobiokimyo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarni tashkil qilish keltirib o'tilgan muammolarni bartaraf etishdagi eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ko'plab manbalardan kimyoviy va biologik himoya usullari alohida alohida keltirilgan, ammo taraqqiyotning hozirgi bosqichida faqat kimyoviy usullardan foydalanish ekologik tanglikka olib kelsa, faqat biologik usullardan foydalanish oziq-ovqat xavfsizligi muammosini keltirib chiqaradi. Shu sababli ularning mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holdagi optimal nisbatlarini ta'minlash bugungi kundagi muhim muammolardan bo'lib qolmoqda.

Shu sababli innovatsion rivojlanish sharoitida agrobiokimyo xizmatlarining huquqiy-tashkiliy, iqtisodiy-ekologik mexanizmini takomillashtirish masalasini tadqiqot mavzusi sifatida tanlagan holda agrobiokimyo xizmatlariga aniqlik kiritib o'tilgan. Fikrimizcha, agrobiokimyo xizmatlarni innovatsion rivojlanish sharoitida aholini oziq-ovqatga, qayta ishlash sanoatining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik talablar, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, tibbiy va sanitariya-gigiena me'yorlarini e'tiborga olgan holda agrokimyo, agrobiokimyo xizmatlarini ko'rsatishning muvofiqlashtirilgan shakli sifatida qarash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Natijalar. Taklif qilinayotgan agrobiokimyo xizmatlari ko'rsatuvchilar nafaqat kimyoviy xizmatlarni ko'rsatishadi balki biologik xizmatlarni ham ko'rsatgani holda kimyoviy vositalardan foydalanish darajasi va nisbatanlarini kamaytirib borishi talab qilinadi. Natijada, bugungi kunda ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan kimyoviy vositalardan foydalanish darajasini, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab hamda ayrim hududlarning ekologik holatini hisobga olgan holda muvofiqlashtirishni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Xulosa. Aholi soni va talabining mavjud darajasi va o'sish sur'ati pestitsidlardan voz kechishga imkon bermaydi, shu sababli, butun dunyoda kimyoviy vositalardan foydalanish darajasini kamaytirgan holda biologik himoya usullarini rolini oshirib borish talab qilinmoqda. Bu esa o'z navbatida ko'plab manbalardan alohida-alohida keltirilgan kimyoviy va biologik himoya usullarini hamda xizmat ko'rsatuvchilarni integratsiyalashgan shaklini ishlab chiqishni talab qiladi. Ya'ni, mavjud vaziyat hamda sharoitdan kelib chiqqan holda ularning optimal nisbatlarini ta'minlash maqbul yechimlardan hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Котлер Ф. Основы маркетинга. М., Прогресс, 1990.
2. Лаур Е. Экономия сельского хозяйства. Пер. с нем. М, «Кооперативное издательство», 1925.;
3. Xoynatska K., Said A. Smart Agrochemicals for Sustainable Agriculture. 1st Edition-2021. eBook ISBN: 9780128170373;
4. Singx P. Abatement of Environmental Pollutants: Trends and Strategies, Elsevier, 2020;
5. Gorbanpur M. Nano-enabled Agrochemicals in Agriculture. Elsevier, 2022;
6. Sate T.V. Agro-chemicals and Pest Management. Daya Publishing House, 2003 - 217 p;

7. Lindonn Marsiya. Socioeconomic Charac-teristics of Farmers and Agrochemical Use in Grenada». ScholarWorks, 2018.;
8. Tammires de Assis Alves Development of Eco-Friendly Agrochemicals a Modern Agricultural Alternative (Portuguese Edition) Aug 28, 2020;
9. Majeti Narasimha Vara Prasad. Agrochemicals Detection, Treatment and Remediation: Pesticides and Chemical Fertilizers. 2020;
10. Wossink G.. The Economics of Agro-Chemicals. 2020.
11. Sivaramanan S. Agrochemicals, Effects to the health, Environmental impacts and Remediation.2021;
12. Pryashinikov D.N. Stati inauchniy raboti. T.I.M., 1928
13. www.fao.org
14. Daily, G., 1997. Nature's Services. Island Press, Washington, DC.
15. Millenniu Ecosystem Assessment (MA), 2005. Ecosystems and Human Well-being: Synthesis. Island Press, Washington, DC.
16. National Research Council (NCR), 2005. Valuing Ecosystem Services: Toward Better Environmental Decision-Making. National Academy Press, Washington, DC.
17. Wood, S., Sebastian, K., Scherr, S.J., 2000. Pilot analysis of global ecosystems: Agroecosystems. Washington, DC, International Food Policy Research Institute and World Resources Institute
18. Tilman D., 1999. Global environmental impacts of agricultural expansion: the need for sustainable and efficient practices. Proceedings of the National Academy of Sciences of the United States of America 96, 5995–6000 (May 1999).
19. Antle J.M., Capalbo S.M., 2002. Agriculture as a managed ecosystem: policy implications. Journal of Agricultural and Resource Economics 27 (1), 1–15.
20. https://food.ec.europa.eu/plants/pesticides/sustainable-use-pesticides_en
21. Eilenberg J, Hajek A, Lomer C (2001) Suggestions for unifying the terminology in biological control. Biocontrol 46:387–400. <https://doi.org/10.1023/A:1014193329979>
22. Glare T., Caradus J., Gelernter W. et al (2012) Have biopesticides come of age. Trends Biotechnol 30:250–258. <https://doi.org/10.1016/j.tibtech.2012.01.003>
23. Harman G.E., Obregón M.A., Samuels G.J., Lorito M. (2010) Changing models for commercialization and implementation of biocontrol in the developing and the developed world. Plant Dis 94:928–939. <https://doi.org/10.1094/PDIS-94-8-0928>
24. Jacquet, Florence & Jeuffroy, Marie-Helene & Jouan, Julia & Le Cadre, Edith & Litrico, Isabelle & Malausa, Thibaut & Reboud, Xavier & Huyghe, Christian. (2022). Pesticide-free agriculture as a new paradigm for research. Agronomy for Sustainable Development. 42. 8. 10.1007/s13593-021-00742-8.
25. https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/86/e3sconf_pdsed2023_04003/e3sconf_pdsed2023_04003.html

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).